

O'ZBEKISTONDA RUS TILINING O'RNI VA O'QITISH METODIKASIDAGI QIYINCHILIKLAR

Oblokulova N.S.¹*Annotatsiya:*

rus tili dunyodagi yetakchi tillardan biri bo'lganiga qaramay u o'rganish uchun qiyinligi bo'yicha dunyoda arab va xitoy tillaridan keyin 3-o'rinda turadi. Uning nafaqat O'zbekistonda balki butun O'rta Osiyoda o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, uni o'rganish ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi. Maqolada rus tilining grammatik jihatdan o'zbek tilidan farqlari va o'xshashliklari, o'qitish metodikasidagi asosiy xususiyatlar va til o'rgatishdagi muhim omillar misollar orqali ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Rus tili, o'zbek tili, grammatika, farqlar, metodika, pedagogika.

Rus tili nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda keng tarqalgan tillardan biri bo'lganligi, unga bo'lgan ehtiyojni oshirishiga qaramay, rus tilining ko'p qatlamli grammatik tuzilishi va o'zbek tilidan ko'p jihatdan farq qilishi uni o'qitishdagi ba'zi qiyinchiliklarga sabab bo'lishi aniq. Misol tariqasida alifbo va harflarning farqi, gap strukturasi turliligi, tallafuz jihatdan farqlar kabilarni keltirish mumkin. Bundan tashqari rus tili grammatik va leksik jihatdan o'rganish uchun dunyodagi eng murakkab tillardan biri deb tan olingan.

XX asrda butun O'rta Osiyoda barcha hujjatlar rus tilida targ'ib qilingan, harflar hozirgi kabi lotin alifbosida emas, balki kirill alifbosida yozilgan, kundalik hayotda esa ko'pincha rus tilidan foydalanilgan. Ammo hozirgi kunda O'zbekistonda asosan o'zbek tilining qo'llanishi, rus tilini kamroq ishlatishga sabab bo'lmoqda. Lekin rus tili butun dunyo bo'ylab ko'p odamlar tomonidan gapiriladigani, turli yo'nalishlarda bu tilning muhimligi, rus tilini bilish kerakligini isbotlaydi. Masalan, davlatlararo hamkorlik, biznesni rivojlantirish, turizmni mukammallashtirish kabilar misol bo'ladi [Ibragimov, F. 2025 Rus tilini o'qitish metodikasi. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari].

Tillar o'rtasidagi farqlarga kelganda, ularning qaysi guruhga mansubligi va kelib chiqishi tafovutning asosiy sababi hisoblanadi. Rus tili hind-yevropa tillari oilasining sharqiy slavyan guruhiga, o'zbek tili esa oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga mansub sanaladi. Gap tuzilishi jihatidan ham rus tili SVO (Subject- Verb- Object) tuzilishida bo'lsa, o'zbek tilida SOV (Subject- Object- Verb) tartibida bo'ladi. Bundan tashqari tillar orasidagi eng katta farqlardan biri bu rus tilida rodlarning mavjudligi (мужской, женский, средний) o'zbek tilida esa ba'zida ayollarga nisbatan qo'llaniladigan so'zlar (hamshira) va qo'shimchalar ("-a" muallim- muallima) borligini aytish mumkin. O'zbek tilida "u" manosi beruvchi olmoshning rus tilida 3 xili (он, она, оно) mavjud. Bundan tashqari rus tilida rodlarga qarab sifat (красивый, красивая, красивое), fe'l (пришел, пришла, пришло), son (один, одна, одно) so'z turkumlarida ham o'zgarishlar kuzatiladi. So'zlardagi urg'u tushishlar ham ikki tilda ikki xil: ona tilida urg'u qo'shimcha va qo'shimchalarsiz hollardan qat'i nazar so'zning oxiridagi unliga tushadi, rus tilida esa urg'u alohida ahamiyatga ega bo'lib, bir so'zning turli kontekstlarda turlicha urg'u bilan ishlatishlar kuzatiladi. Rus tili tallafuzida harflarning o'qilmasligi (здравствуйте), unilarni boshqa unli bilan almashtirib aytish (o o'rniga a) kabilar kuzatilib, o'zbek tilidagi qator undoshlarning tallafuzda tushib qolishi (Toshkent), jarangli undosh o'rniga jarangsizi aytilishi (kitob) bilan bir biriga o'xshab ketadi.

O'quv jarayonida istalgan natijaga erishish uchun (qaysi fanligidan qat'i nazar) ham o'qituvchi ham o'quvchining harakatlari muhim ahamiyatga ega. Yaxshi o'qituvchi fanni mukkamal o'zlashtirganligining o'zi kamlik qiladi, u o'zlashtirgan bilimlarini o'quvchiga qanday yetkazishni, bundan tashqari har bir o'quvchiga turli usullar bilan yondashishni, darsni faqat ilmiy nazariya bilan cheklab qolmasdan unga o'quvchilarni jalb qilib interaktiv o'tkazishni, darsni qiziqarli elementlarga boyitishni ham bilishi maqsadga muvofiq. O'quvchi esa o'z navbatida darslarda faol bo'lishi, bilim birinchi o'rinda o'ziga kerakligini his qilishi va darslarga jiddiy qarashi talab qilinadi. Til o'rgatish metodikasi ham yuqoridagilarni o'z ichiga oladi, ammo o'ziga xos jihatlardan boshqa fanlarni o'qitishdan farq qiladi. Til o'rganish bir san'at hisoblanib, u tilning qoidalari bilan cheklanib qolmasdan uning tarixi, adabiyoti, madaniyati, o'sha xalqning dunyo qarashini o'rganish ham tilni yanada yaxshiroq tushunish, uni kundalik hayotda ishlatish uchun muhim hisoblanadi. Misol qilib aytganda, rus tilida одушевленные (jonli) va неодушевленные (jonsiz) kategoriyalar mavjud bo'lib, o'zbek tili va madaniyatidan farqli o'laroq hayvonlarga nisbatan кто? ya'ni jonli kategoriyani ishlatishdir. Bu bilan birga pedagog tilda ravon so'zlashi o'quvchilar ham bu tilni to'g'ri qo'llay olishi uchun katta ahamiyatga ega. Ayniqsa rus tilining мягкий знак va твёрдый знак larga egaligi uni boshqa tillardan ajratib turadi. Shu sababli til o'qituvchilari ona tili va

¹ Oblokulova Nozima Sanatovna

xorijiy til o'rtasidagi farqni, madaniyatlararo xoslikni, tilning qanday kelib chiqqanini aniq bilishi va uni o'quvchiga tushunarli qilib yetkazishi darkor. [Djorayeva, F., Narzullayeva, S., Nazirxanova, F., Eshnazarova, Sh. 2024].

Xulosa qilib aytganda rus tili dunyodagi keng tarqalgan va murakkab tillardan biri bo'lib, o'zbek tili bilan ko'plab tafovutlari mavjudligi uni o'rgatish va o'rganishni qiyinlashtiradi. Uni o'qitish metodikasida boshqa fanlar kabi bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi ham o'quvchining harakatlari talab qilinadi. Professional til pedagogi esa o'rgatayotgan tilning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi hamda to'g'ri yetkaza olishi, unda to'g'ri so'zlasha olishi darslarni qiziqarli va tushunarli o'tishi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Djorayeva, F., Narzullayeva, S., Nazirxanova, F., Eshnazarova, Sh. (2024) Грамматические сложности русского языка для изучающих как иностранный. 2. The multidisciplinary journal of science and technology. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/2178>
- [2]. Ibragimov, F. (2025) Rus tilini o'qitish metodikasi. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. Wordlyjournal.com <https://www.wosjournals.com/index.php/medical/article/view/748>
- [3]. Musurmonova, D. (2025) Rus va o'zbek tillarining grammatik jihatdan taqqoslanishi. Образование наука и инновационные идеи в мире.
- [4]. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/6330/6081>